

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari	108
M.M.Teshaboyev	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik	115

SIYOSAT

H.M.Rasulov	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida	120
K.X.Avazov	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida	129
D.A.Mamajonova	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
I.A.Raximov	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni"	138

TARIH

E.G.Radjabov	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini	142
B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid	148
X.S.Jumanazarov	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
S.R.Tolibova	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida)	159
X.X.Azimov	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida)	167
K.S.Karimov	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
N.Xudoyberdiyeva	
Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi	176
F.U.Temirov	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati	179
M.H.Isamiddinov	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar	188
M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov	
Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar	191
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir	195
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm	200
G.V.Abdullayeva	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi	204

**TURKISTONDA MUSTAMLAKA HUQUQIY TAKSANOMIYASI TA'SIRIDA XALQ
SUDYALARI LAVOZIMIGA TAYINLASH TARTIBLARI**

**ПРОЦЕДУРЫ НАЗНАЧЕНИЯ НА ДОЛЖНОСТЬ НАРОДНЫХ СУДЕЙ ПОД
ВЛИЯНИЕМ КОЛОНИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ ТАКСОНОМИИ В ТУРКЕСТАНЕ**

**PROCEDURES OF APPOINTMENT TO THE POSITION OF PEOPLE'S JUDGES UNDER
THE INFLUENCE OF COLONIAL LEGAL TAXONOMY IN TURKESTAN**

¹Karimov Kaxramon Sadikovich

¹Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası dotsenti v.v.b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Hozirgi davrda yuksak huquqiy madaniyat shakllantirish mavjud davlatlar siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi sohani tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu bois, sud-huquq faoliyatiga doir ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, uning tarixini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Аннотация

В современный период формирование высокой правовой культуры признается одним из приоритетных направлений политики существующих стран, что порождает необходимость исследования данной области. Поэтому важно углублять научные и теоретические знания о судебной деятельности, изучать ее историю.

Abstract

In the current period, the formation of a high legal culture is recognized as one of the priority directions in the policy of existing countries, which creates the need for research in the field. Therefore, it is important to deepen the scientific and theoretical knowledge of judicial activity, to study its history.

Kalit so'zlar: qozi, xalq sudyasi, Turkiston o'lkasi, mahalliy boshqaruv, shariat, dunyoviy huquq, mustamlaka boshqaruvi, general-gubernatorlik.

Ключевые слова: казы, народный судья, Туркестанская область, местное самоуправление, шарият, светское право, колониальная администрация, генерал-губернаторство.

Key words: qazi, people's judge, Turkestan region, local government, shari'a, secular law, colonial administration, general governorship.

KIRISH

Jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashtirish boy madaniy merosga ega mintaqalar tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishni ham ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, bu jarayon Markaziy Osiyo jumladan, O'zbekiston tarixiga ham tegishli bo'lib, Rossiya, Germaniya, AQSH kabi davlatlarda joylashgan ilmiy markazlar, Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan olimlar qo'lyozma manba va arxiv hujjatlarini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, ular qatoriga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ro'y bergan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, boshqaruv tizimi, mahalliy aholi vakillarining jamiyat hayotidagi ishtiroki, huquqiy munosabatlar, qozilik mahkamasi faoliyati, huquqiy-me'yoriy hamda notarial hujjatlar masalalarini kiritish mumkin.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Amaliy natijalar va muhokamalar

Turkiston viloyati gubernatori M.G.Chernyayev²⁰ rahbarligida ishlab chiqilgan "O'rta Osiyo chegara viloyati to'g'risida Nizom loyihasi" 1865-yilning 6-avgustida Aleksandr II tomonidan "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom" ko'rinishida tasdiqlangan. Unga ko'ra, Turkiston viloyati sud tizimi ikki instansiyadan iborat etib belgilangan.

Birinchisi, harbiy sud bo'lib, u harbiy xizmatchilarga taalluqli ishlardan tashqari fuqarolar aralashgan qotillik, o'g'rilik va talonchilik bilan bog'liq barcha jinoy ishlarni o'z ichiga olgan.

²⁰ Turkestanskiy sbornik. 1867. T. 1. – S. 237.

Ikkinchisi, o'troq aholi uchun qozilar sudi va ko'chmanchi aholi uchun biylar sudi bo'lib, ular mahalliy aholini idora etuvchi mustamlaka ma'muriyati vakiliga bo'ysungan. Imperiya amaldorlari dastlabki davrlarda xalq noroziliklarining oldini olish uchun qozi va biylar sudini saqlashga harakat qilgan²¹. Lekin qozi va biylar tomonidan chiqarilgan hukmlar²² chor Rossiyasi tomonidan jiddiy nazoratga olinib, bu masala o'lkani boshqarish to'g'risidagi "Nizom"ga alohida modda sifatida kiritilgan²³.

1865-yil qabul qilingan "Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom"da viloyat harbiy gubernatori zimmasiga an'anaviy musulmon sud muassasalarini nazorat ostiga olish vazifasi yuklatilgan. Ma'muriy va sudlov tizimini o'z qo'lida birlashtirgan harbiy gubernator huzurida harbiy-sud komissiyasi ham tuzilgan.

1865-yilgi "Nizom"ga muvofiq, mahalliy aholi uchun an'anaviy sud tizimi o'troq aholiga qozilik²⁴ sudi va ko'chmanchi aholiga biylik sudi saqlab qolindi. Ularga fuqarolik va jinoiy ishlarni avvalgidek shariat qoidalari asosida ko'rib chiqish vakolati berilgan. Lekin qozilarni tayinlash va lavozimidan ozod etish harbiy-gubernator ixtiyoriga topshirilgan.

Mavjud sud tizimidagi an'anaviy iyerarxiya²⁵ bekor etilib, qozikalon lavozimi tugatildi va barcha qozilar huquqi tenglashtirildi. Qozilarni uch yilga saylash, da'vogarga o'zi ishonch bildirgan qoziga murojaat qilish huquqini berish kabi o'zgarishlar kiritildi.

1886-yilgi "Nizom"ning 3-bob 208-254-moddalariga alohida «Qozilar va biylarning so'roq va hukm qilmoqlari xususida» nomli fasl kiritildi²⁶. Turkiston viloyatida fuqarolarni so'roq qilish, hukm chiqarish o'z hududining qozi va biylari tomonidan amalga oshirilgan²⁷.

1894-yil 22-fevraldagi Farg'ona viloyati prokurorining viloyat boshqarmasiga yuborgan 292-sonli xatida keltirilgan Ultarma xalq sudyasiga tegishli ma'lumot va unga qo'shimcha qilingan ilovalar mustamlaka hukumati o'lkada qozilarga nisbatan nazoratni kuchaytirganligini ko'rsatadi²⁸.

1886-yilgi Nizomning 141-142-moddalarida keltirilgan, ya'ni rus ma'muriyatiga qarshi jinoyatlar (masalan, temir yo'lni buzish, telegraf simlarini uzish va.h.k)dan tashqari barcha ishlar qozi va biylar tomonidan o'rganilib, ko'rib chiqqan²⁹.

Turkiston general-gubernatorligida o'tkazilgan xalq qozilari saylovi jarayonida avvalgi ba'zi tartiblar o'zgarishi ham mumkin bo'lgan. Mahalliy idoralarning mansabdor shaxslari tomonidan ellikboshilar hamda xalq sudyalari yopiq ovoz berish yo'li bilan saylangan. Qozilik mahkamasi a'zolari-bosh maslahatchi va uning 2 nafar yordamchi qozilari saylanmagan³⁰.

Bu esa qozilarni tayinlashda mustamlaka hukumatining nomzodlarga ovoz berishdagi maxsus saylov qoidalari bosh mezon bo'lib xizmat qilganligini ko'rsatadi.

Mahalliy mansabdor shaxslar, jumladan, qozilar, pristavlar, uyezd va volost boshliqlari tomonidan saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoni tashkil etilgan. Mahalliy mansabdor shaxslarga jumladan, qozlik lavozimiga saylovlar o'tkazishda dastlab ovoz berishda ishtirok etuvchi ellikboshilar ro'yxatga olingan. Ellikboshilar o'zlari yoqlagan har bir nomzodga ovoz berganlar. Ro'yxatlar eski o'zbek va rus tillarida yozilib shakllantirilgan. Masalan:

1. Muhammad Aminboy ellikboshi Olimboy o'g'li.
2. Yo'ldosh Muhammad ellikboshi Toshmuhammad o'g'li.
3. Musaboy Muhammad Karimboy o'g'li.
4. Otaboy ellikboshi Muhammad Qobilboy o'g'li.

²¹ Ergasheva D. Qoziga ham oson bo'lmagan. (Elektron resurs) (kirish vaqti 19.04.2021y soat 16:54) <http://hudud24.uz/qoziga-ham-oston-bolmagan>

²² Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. 26-varaq.

²³ Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabt va rabt qilmoq ya'ni boshqarmog'ining nizomi – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 9542. 65-varaq.

²⁴ Qozi – musulmon davlatlarida hukmdor tomonidan tayinlanadigan, shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi, sud'ya, sha'riy mahkama raisi. (Elektron resurs) (kirish vaqti 24.04.2021y soat 15:49) <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qozi-uz/>

²⁵ Ierarxiya (grek.) muqaddas hokimiyat, mansablar, unvonlar, eng quyisidan oliysigacha tutgan o'riniga qarab qo'yish sistemasi. (Elektron resurs) (kirish vaqti 24.04.2021y soat 16:10) <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

²⁶ Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V. 22.

²⁷ Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V. 26.

²⁸ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 3845-ish, 12-varaq.

²⁹ Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 730. – V. 17-18.

³⁰ Turkestanskiy sbornik. 1867. T. 1. – S 49.

TARIX

5. Sayid Ahmad ellikboshi Sherg'oziboy o'g'li hamda jami 29 nafar ellikboshilar uyezd boshqaruvi tarkibida bo'lgan ellikboshi lavozimi saylov yakunlarini o'z muhrlari orqali tasdiqlagan³¹.

1890-yil 29-iyul sanasi bilan belgilangan saylov qaydnomasi (Ballotirovichnyy list)da jami 23 nafar nomzodga ovoz berilgan. Shundan eng ko'p ovoz:

1. Ataxanov Mirayub.
2. Shtabc-kapitan Rayevskiy.
3. Statskiy sovetnik Andrev.
4. Otsavnoy chinovnik Tixon.
5. Shtabs-kapitan Pavliyevlarga berilgan³².

Ovoz berishda 9,5x12 santimetr kattalikdagi bo'sh kartochkalarga shahar kengashi a'zoligi uchun 23 nafar nomzod orasidan 4 nafar nomzodni yoqlab, ovoz berish huquqiga ega saylov ishtirokchisi ruchka yoki qalamda nomzodning ismi sharifini yozgan. Ayrim kartochkalarda siyoh bilan yozilgan holatlar ham uchraydi. Agar mahalliy mansabdor tomonidan ovoz berilgan kartochkalarga e'tibor qaratsak, yozuv arab alifbosi turkiy tilda jami nomzodlar orasidan 4 nafarining ismi sharifi o'ngdan chapga qarab yozilganligiga guvoh bo'lamiz. Mahalliy va rus mansabdorlari kartochkalarining yuqori qismiga rus tilida ikki kishining imzosi qalam bilan qo'yilgan³³. Fikrimizcha, bu saylovda ishtirok etganlar ovoz beruvchilarni ro'yxatga olish tartibi uchun zarur bo'lgan.

Kartochkalar oddiy oq qog'ozdan iborat bo'lib, ularga tartib raqam, muhr, marka yoki alohida belgi qo'yilmagan³⁴.

Yangi Marg'ilon shahar kengashining 1890-yil 12-iyulda o'tkazildigan saylovida ishtirok etadigan saylovchilar ro'yxatiga (spisok izbirateley) rus alifbosi tartibida jami 405 nafar rus va mahalliy shaxslar kiritilgan. Ushbu ro'yxat uyezd boshlig'i podpolkovnik Ivanov imzosi bilan tasdiqlangan. Lekin muhr bosilmagan³⁵.

Hujjatlar matni oxiriga qo'yilgan imzo muhr (5 ta) lar diametri 4, 5-5 santimetr bo'lib, to'liq doirasimon bo'lgan va doira ichida qo'lyozma shaklda qozi va muftiylarning dalolatnoma tuzuvchi kotibning bir xil dastxati bilan ismi-shariflari yozilgan³⁶. Ayrim kam sonli hujjatlarda qizil rangli so'rg'ich muhrlar ham ishlatilgan³⁷.

O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 18802-ishda saqlanayotgan manbada jami 50 ta muhr bo'lib, shundan 43 ta muhr turkiy mahalliy mansabdorlarga, qolgan 7 ta muhr esa Qo'qon uyezdi volostlarga tegishli bo'lgan. Turkiy muhrlarlarga e'tibor qaratsak, aylana shakldagilarining eng kichik o'lchami 1,5x1,5 santimetr, eng kattasi esa 1,8x1,8 santimetrni tashkil qiladi. Yarim doira shakldagi muhrlarning kichigi 1x1,5 santimetr, eng kattasi 1,5x2,2 santimetrdir. To'rtburchak shakldagi muhrlar 1,2x1,5 santimetr, 1,5x2 santimetrni o'z ichiga oladi³⁸. Qo'qon uyezdi volostlariga tegishli muhrlar 3,2 santimetr diametr kattalikda bo'lgan³⁹. Tabiiyki, muftiy va qozi muhrlarini⁴⁰ bir ko'rishda farqlash mumkin edi.

Saylov kuni ovoz berish jarayoni yakunlangach, ovozlarni sanab chiqish natijalari zamonaviy saylovlarda qo'llaniladigan statsionar kichkina saylov qutisi vazifasini bajaruvchi elit qutisidagi saylov byulletenlari bo'yicha amalga oshirilgan⁴¹. Saylov qog'ozidagi har bir nomzodni yoqlab berilgan ovozlarni alohida-alohida sanab chiqilgan.

Saylov qog'ozini (ballotirovochnyy list)da⁴²:

- saylovchilar umumiy soni;

³¹ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 7910-ish, 33-varaq.

³² O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 24107-ish, 156-varaq.

³³ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 24107-ish, 39-155-varaq.

³⁴ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 24107-ish, 39-155-varaq.

³⁵ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 24107-ish, 36-37^b-varaq.

³⁶ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 18802-ish, 163-varaq.

³⁷ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 18802-ish, 163^b-varaq.

³⁸ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 9451-ish, 73-varaq.

³⁹ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 9451-ish, 73-varaq.

⁴⁰ Qo'qon davlat muzey qo'riqxonasi. KP(kirim kitobi)-3568, DP(hujjatli yodgorlik)-2827, 411/5-kolleksiya.

⁴¹ O'z MA, I-18-fond, 1-ro'yxat, 1800-ish, 2-varaq.

⁴² O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 9451-ish, 66-66^b-varaq.

- oq rangli to'pcha (shar) saylovchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan nomzod uchun, aks holatini anglatuvchi qora rangli to'pchalar soni;
- nomzod(lar)ning ismi, familiyasi, otasining ismi yozilib, ovozlar soni;
- mahalliy mansabdorlar tomonidan turkiy, forsiy va rus tilida imzo qo'yilgan hamda tamg'a yoki muhr bosilgan;
- volost yoki uyezd boshlig'i imzosi aks etgan.

Ayrim hukumat ma'murlari o'zlariga yoqmagani mansabdorlarni turli yo'llar bilan chetlatishga harakat qilgan. Shuningdek, hukumat mahalliy aholining imperiya manfaatlariga doimiy ravishda tobeligini ushlab turish maqsadida, yangidan-yangi tartiblarni joriy qilib borgan. Xususan, har bir tug'ilgan chaqaloq maxsus daftarga kiritilgan hamda barcha nikohlar qayd etib borilgan⁴³. Shu bilan birga, aholi sonini aniqlash uchun ularning ro'yxati shakllantirilgan. 1867-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Turkiston o'lkasi aholisi jumladan, ko'chmanchilar 527.860 nafarni, o'troq aholi 435.855 nafarni jami 963.115 nafarni tashkil qilgan⁴⁴.

"...arznoma yozib o'n uch ellikboshini ma'lumotnomalarin qo'shub 17nchi o'ktabirg'a 1883nchi yilda Boymirza ellikboshi Oxund o'g'li ham bilmaganlari sababli iltimoslari bo'yincha Mirzo Qodir Bobojon o'g'li qo'lim qo'ydim ham tahrir qildim"⁴⁵-degan tarixiy ma'lumotlar avval savodxon kishi tomonidan saylov qog'ozi ko'rib chiqilganidan dalolat beradi. So'ngra saylovda ishtirok etgan har bir mahalliy mansabdorlar tomonidan turkiy, forsiy va rus tilida imzo qo'yilgan hamda tamg'a yoki muhr bosilgan. Yakunda volost yoki uyezd boshlig'i tomonidan imzolangan⁴⁶. Ba'zan rus ma'muriyati qo'lyozma bayonnoma (protokol)larida matn tagida shu kabi hujjatga turkiy yozuvda izoh keltirilgan⁴⁷.

1903-yil 27-sentyabrda Beshariq uchastkasi pristavi kapitan Kitayev tomonidan tuzilgan dalolatnomada Chirikjiydagi xalq sudyaligiga o'tkazilgan saylovda 1) Mulla Namatberdi Xoji Quvatboyev 26 ovoz, 2) Mulla Sharofiddin Sulaymonov 29 ovoz olganligi rasmiylashtirilgan⁴⁸.

Arxiv hujjatlari tahliliga ko'ra⁴⁹, Turkiston o'lkasida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mahalliy mansabdor shaxslarning saylov yo'li bilan lavozimlarga tayinlanishi ma'lum ma'noda quyidagi ijobiy natijalarga ham olib keldi⁵⁰. Jumladan:

- nomzodlarni yoqlab ovoz berish jarayoni omma oldida avvaldan ro'yxatga olingan saylovchilar tomonidan amalga oshirilgan;

Quyidagilarni ijobiy natija sifatida keltirish mumkin:

- nomzodlarga yopiq ovoz berish shakli qo'llanilgan, ayrim hollarda xalq sudyaligiga faqat bitta nomzod ko'rsatilgan⁵¹.
- saylov jarayonida noxolislik yuz bergan bo'lsa, hudud ma'murlariga shikoyat arizalari berish huquqi mavjud bo'lgan;
- nomzodlar ro'yxati hamda saylov natijalari aks ettirilgan rasmiy yuridik kuchga ega saylov qog'ozi bilan foydalanish amaliyoti yuzaga kelgan;
- saylovlar jarayonida mahalliy aholining fikrlari o'rganilgan.
- yangi saylov tartiblari mahalliy davriy matbuotda e'lon qilingan.⁵² Shunga qaramay, ko'p hollarda aholi yangi joriy qilingan nizom talabalaridan xabardor bo'lmagan⁵³.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, saylov kuni va uning o'tkazilish joyi, tartib-qoidalari mustamlaka ma'muriyati tomonidan belgilangan. Umuman, mustamlaka tuzum o'z hokimiyati barqarorligini o'ylab, mahalliy sud tizimini qattiq nazorat qilgan. Shu bois, har qanday darajadagi jarayon haqida shahar hokimiga ma'lum qilib turish talab etilgan.

⁴³ Dastur ul-amal. – Toshkent: FASHI. – Qo'lyozma № 571. 34-varaq.

⁴⁴ Turkestanskiy sbornik. 1867. T. 1. – S. 24.

⁴⁵ O'z MA, I-17-fond, 1-ro'yxat, 3953-ish, 353-varaq.

⁴⁶ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 9451-ish, 73-varaq.

⁴⁷ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 34480-ish, 6-varaq.

⁴⁸ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 7910-ish, 35-varaq.

⁴⁹ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 7910-ish, 35-varaq.

⁵⁰ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 34480-ish, 6-varaq.

⁵¹ O'z MA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 10014-ish, 324-varaq.

⁵² "Vaqt" gazetasi. 1907. – 13-iyun. – 182-son.

⁵³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.1 – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 195.

TARIX

Yuqorida keltirilganidek, Qo‘qon xonligi davrida diniy qatlam vakillari rahnamosi sifatida qozikalon sifatida barcha sud ishlarini o‘z qo‘llari ostida markazlashtirganlar. Qozikalon lavozimiga nomzodlar amir va xon tomonidan tayinlar edi⁵⁴.

Istilo qilingan yillardan boshlab Rossiya hukumati mahalliy jamoatchilik fikriga murojaat qilib, voqealarni o‘z vakillari yordamida nazorat qilishga harakat qilganlar. Ana shunday murojaatlarning birinchisi-Orenburg general-gubernatori Krijanovskiyning 1865-yil 29-oktyabrda Turkiston viloyati gubernatori M.G.Chernyayevga uni boshqarish uchun loyiha ishlab chiqish ishonib topshirilganligi to‘g‘risidagi e‘lon edi⁵⁵. Ayrim arxiv hujjatlari rus ma‘muriyati mahalliy aholi fikrlari bilan hisoblashgandek ta‘ssurot uyg‘otadi⁵⁶. Shu o‘rinda bunday holatga sabab bo‘lgan quyidagi ayrim fikrlarni ham ta‘kidlab o‘tish o‘rinlidir. Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosatiga nisbatan mahalliy aholini qo‘zg‘aluvchan tebranishli harakatlarni amalga oshirishlaridan havotirda bo‘lgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Turkiston general-gubernatorligida o‘tkazilgan xalq qozilari saylovi jarayonida qator muammoli masalalar kuzatilgan. Mahalliy idoralarning mansabdor shaxslari saylov yo‘li orqali tayinlash jarayonida mustamlaka manfaatlariga xizmat qiluvchi tartiblar asosida amalga oshirilgan.

Bu esa qozilarni tayinlashda ularning bilimi hisobga olinmay, saylov natijalarini tasdiqlovchi mustamlaka hukumatining nomzodlarga qanchalik xayrixohligi, ularning “naqadar ishonchga sazovorligi” bosh mezon bo‘lib xizmat qilgan. Qozilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan suiste‘mliklar xalqning haqqoniy noroziligiga, turli idoralarga shikoyatlar, iltimosnoma va xatlar bilan murojaat qilishiga sabab bo‘lgan, ammo bu murojaatlar yillab javobsiz qolib ketgan, zero hukumat o‘zi o‘rnatgan tartiblarni bekor qila olmagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turkestanskiy sbornik. 1867. T. 1. – S. 237.
2. Ergasheva D. Qoziga ham oson bo‘lmagan. (Elektron resurs) (kirish vaqti 19.04.2021y soat 16:54) <http://hudud24.uz/qoziga-ham-oston-bolmagan>
3. Qonun. – Toshkent: FASHI. – Qo‘lyozma № 730. 26-varaq.
4. Turkiston viloyatidagi xalqlarni zabt va rabt qilmoqqa ya‘ni boshqarmog‘ining nizomi – Toshkent: FASHI. – Qo‘lyozma № 9542. 65-varaq.
5. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 3845-ish, 12-varaq.
6. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 7910-ish, 33-varaq.
7. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 24107-ish, 156-varaq.
8. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 18802-ish, 163-varaq.
9. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 9451-ish, 73-varaq.
10. Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi. KP(kirim kitobi)-3568, DP(hujjatli yodgorlik)-2827, 411/5-kolleksiya.
11. O‘z MA, I-18-fond, 1-ro‘yxat, 1800-ish, 2-varaq.
12. Dastur ul-amal. – Toshkent: FASHI. – Qo‘lyozma № 571. 34-varaq.
13. O‘z MA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 3953-ish, 353-varaq.
14. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 34480-ish, 6-varaq.
15. O‘z MA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 10014-ish, 324-varaq.
16. “Vaqt” gazetasi. 1907. – 13-iyun. – 182-son.
17. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. J.1 – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 195.

⁵⁴ Shamsutdinov R., Karimov Sh., Xoshimov S., Ubaydullayev O‘. Vatan tarixi (XVI – XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 2016.-B.111.

⁵⁵ Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad. Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1927. – S. 175.

⁵⁶ Bizning fikrimizcha Turkiston general-gubernatorligiga oid devonxona hujjatlarining aksariyati rasmiy hujjatlar bo‘lganligi bois ularda imperiya siyosatini go‘yoki odil siyosat qilib ko‘rsatish ustunlik qiladi.